



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI
QASHQADARYO VILOYATI STATISTIKA
BOSHQARMASI

CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



***Dastlabki ma'lumot
2025- yil yanvar-fevral***

***Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel. (75)-221-44-28***

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari o'sish sur'atlari (2025- yil yanvar-fevral oylari, foizda)




2025- yil 1-mart holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 6108 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 20 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 6088 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.


Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar-fevral oylari mlrd. so'mda)



So'nggi 5 yillik (2020- 2025- yillar) da chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2023- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2022- yilning mos davriga nisbatan 95,6 % ni tashkil qildi.

Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, oylar kesimida (2024- 2025- yillar)



2025- yilning yanvar-fevral oylarida o'sish sur'ati **108,1** % ni tashkil qildi.

Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2025- yilning yanvar-fevral oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 3699,3 mlrd. so'mni tashkil etib, 2024- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 108,1 % ga yetdi.


Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 178,4 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 98,9%), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 2970,3 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 107,9%), jumladan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 550,6 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 113,0 %) tashkil etdi.

Hududlar bo'yicha chakana savdo hajmi va o'sish sur'atlari
(2025- yil yanvar-fevral oyi)

	Jami, mlrd. so'm	2024- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan,% da
Qashqadaryo viloyati	3 699,3	108,1
Qarshi sh.	1 026,9	114,5
Shahrisabz sh.	302,0	109,0
G'uzor	156,6	106,2
Dehqonobod	129,6	104,4
Qamashi	222,4	103,1
Qarshi	103,2	109,2
Koson	265,9	105,1
Kitob	199,6	106,2
Mirishkor	135,4	105,4
Muborak	110,0	102,5
Nishon	140,9	105,6
Kasbi	156,8	102,8
Ko'kdala	100,0	104,1
Chiroqchi	201,1	105,3
Shahrisabz	153,2	108,0
Yakkabog'	168,5	104,2

2025- yilning yanvar-fevral oylarida 2024- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan viloyatning Qarshi shahri (114,5 %), Qarshi tumani (109,2 %) va Shahrisabz shahri (109,0%) Shahrisabz tumani (108,0 %) chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi va ulushi (Ulushi, foizda)



Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Qarshi shahri 27,8 % bilan 1026,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Ko'kdala tumani 2,7 % bilan 100,0 mlrd. so'mni tashkil etdi. 2024-yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.




Hajmi, mlrd. so'm

Qarshi sh.	1026,9
Shahrisabz sh.	302,0
Koson	265,9
Qamashi	222,4
Chiroqchi	201,1
Kitob	199,6
Yakkabog'	168,5
Kasbi	156,8
G'uzor	156,6
Shahrisabz	153,2
Nishon	140,9
Mirishkor	135,4
Dehqonobod	129,6
Muborak	110,0
Qarshi	103,2
Ko'kdala	100,0


Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2025- yilning yanvar-fevral oylarida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 2970,3 mlrd. so'mni tashkil etib, 2024- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 107,9 % ga oshdi. Viloyat miqiyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 80,3 % ni tashkil etdi.



Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2024- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 1,1 % ga kamaydi va 178,4 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 4,8 % ulushiga to'g'ri keldi.




CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)

Nishon	1,0	99,0
Qamashi	1,4	98,6
Mirishkor	0,9	99,1
Dehqonobod	1,2	98,8
Yakkabog'	1,8	98,2
Shahrisabz sh.	2,9	97,1
Qarshi	2,4	97,6
Chiroqchi	2,9	97,1
Kitob	2,0	98,0
G'uzor	5,6	94,4
Ko'kdala	5,0	95,0
Koson	5,1	94,9
Kasbi	1,2	98,8
Qarshi sh.	7,3	92,7
Muborak	0,6	99,4
Shahrisabz	15,2	84,8


 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Muborak (99,4 %), Mirishkor (98,8 %), Nishon va Dehqonobod (98,5 %), Kasbi tumanlari (98,2 %) yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 4,8 % ni tashkil etib, eng katta ulush Shahrisabz (15,1 %) Qarshi shahri (7,3 %), G'uzor (5,6 %), Koson (5,1 %) va Ko'kdala (5,0 %) tumanlarida kuzatildi.




 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik




AHOLI JON BOSHIGA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI (Hududlar kesimida ma'lumot, *ming so'mda*)



2025- yilning yanvar-fevral oylari holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 1027,6 ming so'm (2024- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 105,8 %)ni tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Qarshi (3443,5 ming so'm) va Shahrisabz shaharlari (2031,2 ming so'm) hamda Muboraki tumani (1166,7 ming so'm) hissasiga to'g'ri keldi.



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (2025- yil yanvar-fevral), foizda



Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo‘jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o‘rinlari, turg‘un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.


**Hududlar kesimida uyushmagan savdo hajmi va o‘shish sur‘atlari
(2025- yil yanvar-fevral)**

	Jami, mlrd.so‘m	2024- yil yanvar- fevral oylariga nisbatan, foizda
Qashqadaryo viloyati	550,6	113,0
Qarshi sh.	19,1	104,6
Shahrisabz sh.	30,9	115,9
G‘uzor	50,1	114,6
Dehqonobod	40,0	113,7
Qamashi	25,9	111,5
Qarshi	9,1	108,2
Koson	25,5	111,9
Kitob	59,1	111,1
Mirishkor	24,5	110,5
Muborak	42,3	116,4
Nishon	39,1	111,2
Kasbi	35,8	116,3
Ko‘kdala	35,0	112,4
Chiroqchi	52,6	113,1
Shahrisabz	44,1	114,2
Yakkabog‘	17,6	115,6


* – xo‘jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo‘shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo‘jaligida o‘z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

**Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar
aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda
(2025- yil yanvar-fevral)**















**Hududlar kesimida uyushmagan
savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm
(2025- yil yanvar-fevral)**



Viloyat bo'yicha 2025- yilning yanvar-fevral oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 550,6 mlrd.so'mni tashkil etib, 2024- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 113,0% ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) , (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 238,7 mlrd. so'mni (110,4%), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 311,9 mlrd. so'mni tashkil etdi (115,6%).












2025-yilning yanvar-fevral oyida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 238,7 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (128,3 mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

<p>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</p> <p>128,3 mlrd. so'm</p>  <p>53,8 %</p>	<p>Non va non mahsulotlari</p> <p>38,9 mlrd. so'm</p>  <p>16,3 %</p>	<p>Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)</p> <p>11,5 mlrd. so'm</p>  <p>4,8 %</p>
<p>Tovuq go'shti va go'sht mahsulotlari</p> <p>16,2 mlrd. so'm</p>  <p>6,8 %</p>	<p>Quritilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)</p> <p>6,9 mlrd. so'm</p>  <p>2,9 %</p>	<p>Tuxum</p> <p>7,2 mlrd. so'm</p>  <p>3,0 %</p>
<p>Ziravorlar</p> <p>11,0 mlrd. so'm</p>  <p>4,6 %</p>	<p>Sut va sut mahsulotlari</p> <p>7,9 mlrd. so'm</p>  <p>3,3 %</p>	<p>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak</p> <p>2,4 mlrd. so'm</p>  <p>1,0 %</p>
<p>Tuzlamalar</p> <p>5,3 mlrd. so'm</p>  <p>2,2 %</p>	<p>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</p> <p>0,2 mlrd. so'm</p>  <p>0,1 %</p>	<p>Nooziq-ovqat tovarlar</p> <p>2,9 mlrd. so'm</p>  <p>1,2 %</p>

2025- yilning yanvar-fevral oylarida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 311,9 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 215,6 mlrd. so'm, qo'y va echkilar – 60,8 mlrd. so'mni, otlar – 12,5 mlrd. so'mni, parrandalar – 1,5 mlrd. so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari va parrandalar savdosi hajmi va ulushi

<p>2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar</p> <p>138,5 <i>mlrd. so'm</i></p>  <p>44,4 %</p>	<p>1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</p> <p>59,6 <i>mlrd. so'm</i></p>  <p>19,1 %</p>	<p>1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar</p> <p>17,5 <i>mlrd. so'm</i></p>  <p>5,6 %</p>
<p>Qo'ylar</p> <p>48,3 <i>mlrd. so'm</i></p>  <p>15,5 %</p>	<p>Otlar</p> <p>12,5 <i>mlrd. so'm</i></p>  <p>4,0 %</p>	<p>Echkilar</p> <p>34,0 <i>mlrd. so'm</i></p>  <p>10,9 %</p>
<p>Kurka, o'rdak, g'oz</p> <p>0,3 <i>mlrd. so'm</i></p>  <p>0,1 %</p>	<p>Tovuqlar</p> <p>1,2 <i>mlrd. so'm</i></p>  <p>0,4 %</p>	<p>Quyionlar</p> <p>0,0 <i>mlrd. so'm</i></p>  <p>0,0 %</p>
<p>Qushlar</p> <p>0,0 <i>mlrd. so'm</i></p>  <p>0,0 %</p>		

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2025- yil 1- mart holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 1466 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 3 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1463 tani tashkil qildi.

Hududlar kesimida umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo hajmi va o'sish sur'atlari (2025- yil yanvar-fevral)

	Jami mlrd. so'm	2024- yil yanvar- fevral oylariga nisbatan, foizda
Viloyat bo'yicha	2 558,7	114,1
Qarshi sh.	34,5	115,8
Shahrisabz sh.	7,0	114,4
<i>tumanlar:</i>		
G'uzor	4,2	96,2
Dehqonobod	2,5	105,1
Qamashi	1,9	105,5
Qarshi	3,4	110,0
Koson	3,4	105,8
Kitob	9,5	101,7
Mirishkor	1,4	108,1
Muborak	11,0	98,7
Nishon	8,5	111,7
Kasbi	2,7	102,8
Ko'kdala	1,6	105,5
Chiroqchi	4,0	107,0
Shahrisabz	2,0	109,4
Yakkabog'	4,1	107,8

2025- yilning yanvar-fevral oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 2558,7 mlrd. so'mga yetdi. 2024- yilning mos davriga nisbatan 114,1 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 88,6 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.


Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

(jismoniy shaxslar hisobga olinmagan holda)

	Hajmi, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
Viloyat bo'yicha	418,4	76,5
Qarshi sh.	367,0	74,6
Shahrisabz sh.	1,1	106,4
<i>tumanlar:</i>		
G'uzor	0,7	103,1
Dehqonobod	1,0	105,8
Qamashi	0,4	101,5
Qarshi	32,9	87,5
Koson	1,6	107,0
Kitob	1,5	106,2
Mirishkor	2,5	100,3
Muborak	1,7	100,7
Nishon	2,2	107,9
Kasbi	1,5	116,2
Ko'kdala	0,8	101,9
Chiroqchi	2,8	106,7
Shahrisabz	0,1	-
Yakkabog'	0,6	103,9


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Qarshi shahri (367,0 mlrd. so'm), Qarshi (32,9 mlrd. so'm) va Chiroqchi (2,8 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd. so'm)



2025- yilning yanvar-fevral oylarida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 418,4 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 23,5 % ga kamaygan. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 185,0 mlrd. so'm (o'sish sur'ati – 82,7 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – 233,4 mlrd. so'm (o'sish sur'ati 72,3 %)ni tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'atlari, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar qiymati.

**Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi,
mlrd. so‘mda**



Viloyat bo‘yicha 2025- yilning yanvar-fevral oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 1122,3 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 108,5 % ga o‘sdi.

Savdo aylanmasi va ulushi



Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 1055,8 mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 109,3 % ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 94,1 % ni tashkil qildi.

Ulgurji savdo aylanmasi hajmi va o'sish sur'atlari (2025- yil yanvar-fevral)

	Jami mlrd. so'm	2024- yil yanvar- fevral oylariga nisbatan, foizda
Viloyat bo'yicha	1 122,3	108,5
Qarshi sh.	443,5	102,8
Shahrisabz sh.	102,3	114,1
<i>tumanlar:</i>		
G'uzor	34,2	105,1
Dehqonobod	4,8	107,6
Qamashi	27,6	133,0
Qarshi	70,6	105,5
Koson	68,7	105,0
Kitob	55,7	112,7
Mirishkor	27,3	102,8
Muborak	15,8	115,4
Nishon	17,4	99,5
Kasbi	27,3	3,7 m.
Ko'kdala	3,6	108,2
Chiroqchi	32,4	101,9
Shahrisabz	23,5	96,0
Yakkabog'	21,9	114,1

2025-yil 1-mart holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 2012 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 11 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 2001 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega eng yirik korxonalar Kasbi (6,3 m. %) tumanida kuzatildi.